

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

JOCAA

VOLUME I, ISSUE 9

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

NOVEMBER

2023



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 9-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-9

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-9

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 9 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-9>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович
Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович
Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич
Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна
Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна
Ботирова Хилола
Турсунбаевна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

MUXAMEDOVA Madina Ashurovna*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası**katta o‘qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10205610>

SHARQONA “SEVGI AFSONASI” JAHON SAHNASIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek milliy baletlarining paydo bo‘lishi, Toshkentda balet maktabi ochilishi, 1933 yilda birinchi o‘zbek milliy balet pantomimasi “Paxta”, keyinchalik “Shohida”, “Gulandom”, “Tog‘lar qalbi”, kabi baletlar o‘zbek mumtoz va xalq raqslari asosida yaratildi. 1943 yilda “Oqbilak” baleti qo‘yildi. 1948 yilda “Bukri toychoq”, “Raqqosa” kabi milliy baletlar ham sahna yuzini ko‘rgani, shuningdek, asar tahlili, bosqich jarayoni, milliy balet san‘atining insonga ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbek baleti san‘ati rivojida rus baletmeysterlari va pedogoglar tomonidan o‘zbek mumtoz raqsi va baleti rivojida asos yaratildi. Yangi baletlar sahnalashtirish uchun mumtoz raqsni professional darajada o‘zlashtirgan mutaxassislar lozim bo‘ldi. Balet maktabi tashkil qilish, opera-balet san‘ati rivojlantirish va shu asnosda opera-balet teatr binosi qurilishi masalasi keng qo‘yildi.

Kalit so‘zlar: balet, musiqa, libretto, kompozitor, teatr, xoreografiya, baletmeyster, obraz, asar, sevgi.

ВОСТОЧНАЯ ”ЛЕГЕНДА О ЛЮБВИ” НА МИРОВОЙ АРЕНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются возникновение узбекских национальных балетов, открытие балетной школы в Ташкенте, первая узбекская национальная балетная пантомима «Хлопок» в 1933 году, более поздние балеты «Шохида», «Гуландом», «Сердце гор» основаны на узбекских классических и народных танцах. В 1943 году был поставлен балет «Акбиллак». В 1948 году на сцене появились такие национальные балеты, как «Конок-горбунок» и «Танцовщица», а также сведения об анализе произведения, сценическом процессе, влиянии национального балетного искусства на людей. В развитии узбекского балетного искусства российские балетмейстеры и педагоги заложили основу для развития узбекского классического танца и балета. Для постановки новых балетов требовались специалисты, владеющие классическим танцем на профессиональном уровне. Обсуждался вопрос создания балетной школы, развития оперно-балетного искусства, строительства театра оперы-балета.

Ключевые слова: балет, музыка, либретто, композитор, театр, хореография, балетмейстер, образ, произведение, любовь.

ORIENTAL "LEGEND OF LOVE" ON THE WORLD STAGE

ANNOTATION

This article discusses the emergence of Uzbek national ballets, the opening of a ballet school in Tashkent, the first Uzbek national ballet pantomime “Cotton” in 1933, and later ballets “Shohida”, “Gulandom”, “Heart of the Mountains” are based on Uzbek classical and folk dances. In 1943, the ballet “Akbiyak” was staged. In 1948, such national ballets as “The Little Humpbacked Horse” and “Dancer” appeared on the stage, as well as information about the analysis of the work, the stage process, and the influence of national ballet art on people. In the development of Uzbek ballet art, Russian choreographers and teachers laid the foundation for the development of Uzbek classical dance and ballet. To stage new ballets, specialists who knew classical dance at a professional level were required. The issue of creating a ballet school, developing opera and ballet art, and building an opera and ballet theater were discussed.

Key words: ballet, music, libretto, composer, theater, choreography, choreographer, image, work, love.

Kompozitor Orif Melikovning uch pardali, yetti sahnali “Sevgi afsonasi”ga Nozim Hikmat “Ferhod va Shirin” dramasi asosidagi libretto yaratdi. Balet xoreografiyasi ustida Yuriy Grigorovich ishladi. Balet jahonga 1961 yil 23 martda S.M.Kirov nomidagi Leningrad opera va balet teatrida taqdim etildi. Ushbu balet 3 akt va 7 sahna ko‘rinishdan iborat bo‘lib, unda bosh qahramonlar sifatida hukmor, malika Mehmene Bonu (Mehinbonu), uning singlisi Shirin, Shiringa oshiq musavvir Ferhod (Farhod), vazir, notanish, Ferhadning do‘stlari, Shirinning dugonalari, masharaboz, saroy raqqosalari, saroy a‘zolari, qo‘riqchilari va xalq ishtirok etadilar. Baletning ilk taqdimotida bosh rollarda **Mehmenebonu**-Olga Moyseeva, **Shirin** - Irina Kolpakova, **Ferhod**-Aleksandr Gribov, **Vazir**-Anatoliy Grigin, **Notanish** - Anatoliy Sapagovlar sharqona milliy obrazlarini maromiga yetkazib gavalantirganlar.

Farhod va Shirin-eronlik xalqlar adabiyotlarida an’anaviy mazmunga ega bo‘lgan va bir necha ijodkorlar tomonidan qalamga olingan ishqiy qissa va dostonlardan birining nomi bo‘lib, Farhod va Shirin timsollari fors-tojik adabiyotida X-XI asrlardan boshlab Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin”, Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”, o‘zbek shoiri Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonlarida eng fidoyi oshiq va ma’shuqalar sifatida tasvirlangan. Alisher Navoiy Sharqda bu an’anaviy ishqiy qissani qayta ishlab, uni yangidan shakllantirgan, Farhod va Shirinni dostonning bosh qahramonlari sifatida tasvirlagan va unga “Farhod va Shirin” deb nom qo‘ygan [1].

Sharq adabiyoti dostonchiligida adabiy an’analarining keng rivoj topishiga ham sabab bo‘ldi. Nizomiydan keyin Sharqning buyuk shoirlaridan Xusrav Dehlaviy (1253-1325) ham ana shu mavzuda “Shirin va Xusrav” dostonini yaratib “Xamsa” navislikning keyingi toraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Xusrav Dehlaviy o‘z dostonida Nizomiy asarining asosiy syujeti va kompozitsion qurilishini saqlagan bo‘lsa-da, ammo obrazlar talqini, tabiat tasviri masalalarida boshqacha yo‘l tutgan.

Shoir dostonida Nizomiy singari Shirin obrazini emas, balki Xusrav obrazini bosh o‘ringa quyib tasvirlaydi. Shuning uchun ham turli ijtimoiy va tariyxiy sharoitda yaratilgan bu ikki doston o‘z davrining badiiy in’kosi sifatida jamiyat hayotining muhim masalalarini aks ettirgan. Dostonlar bir-birining takrori bo‘lmay, ikki mustaqil asar sifatida el o‘rtasida katta shuhrat qozondi va barcha shoirlar uchun ilhom manbaiga aylandi. Alisher Navoiy ham ulug‘ ustozlarining adabiy an’anasini davom ettirib, o‘z dostonini yaratishga kirishar ekan, avvalo Sharq xalqlarining shu syujet bilan bog‘liq yozma manbalarini chuqur o‘rganadi, tariyxiy halq og‘zaki ijodidan unumli foydalandi [1].

“Sevgi afsonasi” baletining librettosi turk shoiri va dramaturgi Nozim Hikmat tomonidan yozilgan boʻlib, unda A.Navoiyning shoh asarlaridan biri “Farhod va Shirin” dostoni jahon klassik adabiyotining muhabbat bobida yaratilgandir. Doston ikki begʻubor yoshning haroratli sof muhabbatini kuylashga bagʻishlanib, unda odamiylik, insonparvarlik, tinchlik, doʻstlik, obodonchilikka intilish kabi motivlar ana shu qudratli sevgida yoritilgan. “Ferhod va Shirin” dramasi asosida yaratilgan, 1958 yildan boslab, yosh ozarbayjonlik bastakor Orif Melikov ikki yil davomida ushbu balet musiqasi ustida ishlay boshladi [2].

“Balet musiqasini yozganimdan soʻng, men darhol samolyotga oʻtirdim, Mariinskiy teatriga, Leningrad shahriga uchib ketdim. U yerda oʻzinning yangi ijod namunamni namoyish etdim. Meni yaxshi kutib olishdi va men bilan shartnoma imzolashdi. Shunday qilib, 1961 yilda “Sevgi afsonasi”ning ilk taqdimoti boʻlib oʻtdi. Bu maftunkor taqdimot edi”- deb eslaydi Orif Melikovning oʻzi.

Malika Mehmenebonuning singlisi Shirin oʻgʻir kasal. Malika va uning atrofida gilar chuqur qaygʻuga botadi. Hatto eng malakali tabiblar ham hasta malikaga yordam bera olishmaydi.

Malika Shirinning xonasiga oddiy kiyim kiygan notanish odamni olib kelishadi. U malika Shirinning kasalligi haqida bilib olib, shifo topishiga ishonadi. Mehmenebonuning chehrasidan nur taraladi, bir necha oylar ichida birinchi marta umid porlaydi. U sevimli singlisini davolash uchun notanish insonga marvaridlarni taklif qiladi, lekin u ularni nafrat bilan rad etadi. Ajablangan malika boshidan tojini yechib, notanishga beradi. Ammo, bu bebaho xazina ham uning eʼtiborini tortmaydi. “Singlimni qutqarganingiz uchun qanday tovon toʻlayman?”-deb soʻraydi malika Mehmenebonu.

Notanish esa misli koʻrilmagan narxni talab qilib, malika Mehmenebonuning yorqin goʻzalligidan ajralishi kerakligini aytadi. Bu talabdan hayratda qolgan, malika, singlisi kurashayotgan kasalikni oylab, undan boshqa hech kim yordam koʻrsata olmasligini bilib, singlisini jonidan afzal koʻrgani uchun ham bunday qurbonlikka rozi boʻladi.

Notanish inson afsun qiladi, uning harakatlari gʻalati, tushunarsiz edi. Malika Shirin oʻlim bilan hukm surgan paytda birdaniga oʻrnidan turadi. U hayron boʻlib, Mehmenebonuning yuziga tikiladi va uning yuzini koʻrib opasini tanimaydi [3].



Mehmenebonu va Shirin hamrohlari bilan malika uchun qurilgan saroyini koʻzdan kechirish uchun boradilar. Opa-singillarning ikkalasi ham archa chizayotgan goʻzal yosh rassom Ferhodga hayrat bilan qarashadi.

Hamma ketganidan keyin Shirin Ferhadga yaqinlashadi. Avvaliga uni oddiy qiz deb biladi. Ular suhbatlashadi. Ferhod goʻzal malikani sevib qolganini bilgach, afsus bilan hang-mang boʻlib qoladi. U oddiy rassom, malikaning opasini orzu qilishi kerakmi? –degan hayollar uni tark etmaydi.

Qurilgan buloqda odamlar gavjum. Uzoq vaqt davomida suv yo‘q. Bu esa butun mamlakatning qayg‘usidir. Saroyga xizmatkorlar uzoqdan suv olib kelishar edi. Oddiy odamlar uchun suv olish uchun siz ulkan tog‘lardan o‘tishingiz kerak. Ammo kim bunday ishni bajarishga jur‘at eta oladi?



Mehmenebonu Ferhod bilan uchrashuvni unuta olmayapti. Singlisining najoti uchun qilingan qurbonlik uni nimaga mahkum etganini endigina tushunadi.

Shirinning taqdiri boshqacha edi. U sevadi va seviladi. U hech qachon tanlaganidan ajralmaslik ucun saroyni afsuslanmasdan tark etadi.

Singlisining qochib ketganidan xabar topgan Mehmenebonu jahli chiqib, Shirin va Ferhodni topishni buyuradi. Ularni Qirolichaning oldiga olib kelganidan so‘ng, u Ferhodga o‘z vasiyatini e‘lon qiladi: u tog‘dan suv haydab chiqmaguncha Shirinni unga bermaydi [4].



Faqat orzular Qirolichaning taqdiriga aylanadi. Tushlarida u o‘zini avvalgidek go‘zal ko‘radi, yonida esa uni sevuvchi Ferhod.

Shirin uchun esa baland toqqa chiqqan sevganidan vaqtinchalik ajralish ham chidab bo‘lmasdir. U opasidan hech bo‘lmaganda Ferhodga qarash uchun u bilan cho‘qqilarga chiqishni iltimos qiladi. Mehmene Banu bu safar ham singlidan ayrilgisi kelmaydi. Lekin, u shart qoyadi: Ferhod ishini to‘xtatib, Shiringa vodiya tushishini aytadi. U tushunadiki, Ferhod, hatto cheksiz mehribon Shirin bo‘lsa ham, suv va u bilan najot va‘da qilgan xalqni aldab qoya olmaydi. Buni Shirin ham tushunadi. Ferhod bilan xayrlashib ketib qoladi. Mehmene Banu uning orqasidan boradi.



Farhod tushida kelajakka kirib boradi, qoyalardan qanday suvlar otilib chiqayotganini, yaqin-atrofdan sevgan qizining qiyofasi qanday paydo bo'lganini ko'radi va bu tasavvurlar unga muhabbat jasorati nomidan yangi kuch-quvvat bag'ishlaydi.

1969 yilda balet "Sevgi afsonasi" nomi bilan bosh rolda Nikita Dolgushin, Inna Zubkovskaya, Marina Kondrateva, 1989 yilda esa "Sevgi afsonasi" nomi bilan bosh rolda Irek Muxamedov, Mariya Bilova, Alla Mixalchenko, Gediminas Taranda va 1989 yilda "Sevgi afsonasi" nomi bilan Nataliya Bessmertnova, Aleksandr Bogatiryovlar tomonidan bosh rollargavtalantirib, ekranlashtirilgan.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Alisher Navoiy, Mukammal asarlarto‘plami, 8j., T., 1991; Xurshid, Tanlangan asarlar, T., 1967.
2. Alisher Navoiy, Mukammal asarlarto‘plami, 8j., T., 1991; Xurshid, Tanlangan asarlar, T., 1967.
3. Демидов А. Золотой век Юрия Григоровича. — М.: Алгоритм, Эксмо, 2007.- 432 с.- 3000 экз.-ISBN 5-699-19631-5.
4. Мухamedova М. Jahon va o‘zbek Xoreografiya san’ati tarixi. T.:2021 yil
5. Красовская В. Героическая легенда // Ленинградская правда: газета. — Л., 1961. — № 28 марта.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 9-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-9

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-9

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz